ISSN: 3060-4737 Volume 3, Issue 11 IF(Impact Factor) 10.98 / 2026

PUL MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI.

Razzoqova Gulrux Abdulfayzovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi
4-bosqich talabasi
Xakimov Zafar
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'laridan samarali foydalanishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tadqiq etilgan. Maqolada moliyaviy resurslarni oqilona boshqarishning korxona to'lov qobiliyati, xarajatlarni optimallashtirish hamda rentabellikni oshirishga ko'rsatadigan bevosita ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, makroiqtisodiy darajada byudjet va kredit mablag'larining maqsadli sarflanishi inflyatsiyani jilovlash, investitsiya muhitini yaxshilash va yalpi ichki mahsulot o'sishini ta'minlashdagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pul mablag'lari, moliyaviy samaradorlik, xarajatlarni optimallashtirish, to'lov qobiliyati, rentabellik, investitsiya, makroiqtisodiy barqarorlik.

Аннотация

В данной статье исследуются теоретические основы и практическое значение эффективного использования денежных средств в условиях рыночной экономики. В работе проанализировано непосредственное влияние рационального управления финансовыми ресурсами на платежеспособность предприятия, оптимизацию затрат и повышение рентабельности. Кроме того, на макроэкономическом уровне освещена роль целевого расходования бюджетных и кредитных средств в сдерживании инфляции, улучшении инвестиционного климата и обеспечении роста валового внутреннего продукта.

Ключевые слова: денежные средства, финансовая эффективность, оптимизация затрат, платежеспособность, рентабельность, инвестиции, макроэкономическая стабильность.

Abstract

This article examines the theoretical foundations and practical significance of the effective use of funds in a market economy. The paper analyzes the direct impact

ISSN: 3060-4737 Volume 3, Issue 11 IF(Impact Factor) 10.98 / 2026
of rational financial resource management on enterprise solvency, cost optimization, and profitability enhancement. Furthermore, at the macroeconomic level, it highlights the role of targeted expenditure of budget and credit funds in curbing inflation, improving the investment climate, and ensuring gross domestic product growth.
Keywords: funds, financial efficiency, cost optimization, solvency, profitability, investment, macroeconomic stability.

Kirish: Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida pul eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, pul -bu barcha tovar va xizmatlarning qiymatini o‘lchaydigan, ayirboshlash jarayonini osonlashtiradigan hamda jamg‘arish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan umumiy ekvivalentdir. Iqtisodiyotda pulni ko‘pincha tirik organizmdagi qon aylanish tizimiga qiyoslashadi. Chunki qon tanadagi barcha hujayralarni oziqlantirgani kabi, pul mablag‘lari ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini harakatga keltiradi va ularning uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.

Bugungi kunda resurslar cheklangan, raqobat esa tobora kuchayib borayotgan bir paytda, mavjud pul mablag‘laridan shunchaki foydalanish emas, balki ulardan oqilona va samarali foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Har qanday korxona yoki tashkilotning moliyaviy barqarorligi, uning o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarishi va kelajakda rivojlanishi aynan pul oqimlarini qanchalik to‘g‘ri boshqarishiga bog‘liq. Agar mablag‘lar samarasiz va maqsadsiz sarflansa, bu nafaqat alohida bir korxonaning bankrot bo‘lishiga, balki davlat miqyosida inflyatsiyaning oshishi va iqtisodiy o‘sishning sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, pul mablag‘larini rejalashtirish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish va bo‘sh turgan mablag‘larni daromad keltiruvchi sohalarga yo‘naltirish mexanizmlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada aynan pul mablag‘laridan samarali foydalanishning nazariy jihatlari, uning korxona hamda mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va moliyaviy natijalarga ta’siri tahlil qilinadi.Pul tovar ayirboshlashda ishlatiladigan umumiy ekvalent tovar hisoblanadi. Pulni ishlab chiqarish va muomalaga kiritish mutlaq huquqi davlatning Markaziy bankiga tegishlidir.O‘zbekiston Respublikasida ushbu vazifani O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bajaradi. Naqd pullarni bevosita bosib chiqarish va tangalarni zarb qilish esa Markaziy bank huzuridagi «Davlat belgisi» davlat unitar korxonasi tomonidan amalga oshiriladi.Pul yaratishning ikki asosiy ko‘rinishi mavjud:Naqd pullar: Ular maxsus himoya belgilariga ega qog‘oz va metallardan «Davlat belgisi» korxonasida tayyorlanadi. Faqat Markaziy bank qancha naqd pul bosib chiqarish kerakligini hal qiladi.Naqd pulsiz pullar,Raqamli mablag‘lar. Hozirgi kunda pulning asosiy qismi qog‘oz ko‘rinishida emas, balki bank hisobvaraqlaridagi raqamlar

ISSN: 3060-4737 Volume 3, Issue 11 IF(Impact Factor) 10.98 / 2026

shaklida mavjud. Tijorat banklari aholi va tadbirkorlarga kredit berish orqali iqtisodiyotda qo‘shimcha naqd pulsiz pullarni yaratadi.shunda bizda savol tug’iladi nega davlat xohlagancha pul bosib chiqara olmaydi?Inflyatsiya xavfi paydo bo’ladi,Agar muomaladagi pul miqdori mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar hajmidan ko‘payib ketsa, pul qadrsizlanadi va narxlar keskin oshib ketadi. Markaziy bank pulni faqat iqtisodiy o‘sishga mos ravishda, bozordagi talab va taklifni qat’iy hisob-kitob qilgan holda muomalaga chiqaradi.

Pulning iqtisodiyotdagi asosiy vazifalari:

Qiymat o‘lchovi. Pul barcha tovar va xizmatlarning narxini yagona birlikda o‘lchash imkonini beradi. Bu ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarga xarajatlarni hamda foydani aniq hisoblashga yordam beradi.

Muomala vositasi. Tovarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri almashtirish o‘rniga puldan foydalanish savdo-sotiqni keskin tezlashtiradi. Har bir inson o‘z mahsulotini sotib, tushgan pulga kerakli boshqa tovarni erkin xarid qila oladi.

To‘lov vositasi. Pul kreditlarni qaytarish, ish haqini to‘lash, soliqlarni byudjetga o‘tkazish va kommunal xizmatlar uchun hisob-kitob qilishda qo‘llaniladi. Bu esa moliyaviy majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi.

Jamg‘arish vositasi. Bo‘sh turgan pul mablag‘larini yig‘ish kelajakda yirik investitsiyalar kiritish, yangi korxonalar ochish va iqtisodiyotni kengaytirish uchun kapital yaratadi.

Jahon puli. Xalqaro savdo, davlatlararo kreditlar va xorijiy investitsiyalar harakatida pul mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni bog‘lab turadi.

Har qanday korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uning moliyaviy resurslarni qay darajada to‘g‘ri boshqarishiga bevosita bog‘liq. Chunki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, xomashyo va materiallar xarid qilish, ish haqi to‘lash, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va boshqa iqtisodiy faoliyatlar pul mablag‘lari bilan uzviy bog‘liqdir.Pul mablag‘laridan samarasiz foydalanish korxonada moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi, qarzdorlikning ortishi, to‘lov qobiliyatining pasayishi va hatto bankrotlik xavfining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Aksincha, pul oqimlarini to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag‘laridan samarali foydalanish masalasi nafaqat alohida korxonalar, balki butun mamlakat iqtisodiyoti uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlat byudjeti mablag‘lari, kredit resurslari va investitsiyalarning maqsadli yo‘naltirilishi iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini oshirishning muhim omillaridan biridir.Maqolaning asosiy maqsadi

ISSN: 3060-4737 Volume 3, Issue 11 IF(Impact Factor) 10.98 / 2026

bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag‘laridan samarali foydalanishning iqtisodiy mohiyatini ochib berish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Iqtisodiy adabiyotlarda pul mablag‘lari korxonaning kassasida, bank hisobvaraqlarida va boshqa talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlarda mavjud bo‘lgan moliyaviy aktivlar sifatida izohlanadi. Ular korxonaning joriy majburiyatlarini bajarishi va kundalik faoliyatini moliyalashtirish uchun xizmat qiladi. Pul mablag‘laridan samarali foydalanish deganda mavjud moliyaviy resurslarni eng maqbul yo‘nalishlarga taqsimlash, ularning harakatini nazorat qilish, ortiqcha xarajatlarning oldini olish va iqtisodiy natijadorlikni oshirish tushuniladi.Mazkur jarayon bir nechta muhim tamoyillarga asoslanadi:

Birinchidan, maqsadlilik tamoyili. Pul mablag‘lari oldindan belgilangan iqtisodiy maqsadlar asosida sarflanishi kerak. Har bir xarajat korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasiga mos kelishi lozim.

Ikkinchidan, tejamkorlik tamoyili. Moliyaviy resurslardan foydalanishda ortiqcha va samarasiz xarajatlarni qisqartirish, mavjud mablag‘lar hisobidan yuqori iqtisodiy natijaga erishish muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, likvidlikni ta’minlash tamoyili. Korxona o‘zining joriy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish uchun yetarli miqdorda pul mablag‘lariga ega bo‘lishi zarur.

To‘rtinchidan, moliyaviy nazorat tamoyili. Pul mablag‘larining kelib tushishi va sarflanishi muntazam nazorat qilinishi, barcha operatsiyalar tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi lozim.

Beshinchidan, iqtisodiy samaradorlik tamoyili. Moliyaviy resurslarni yo‘naltirishda ularning kelgusida keltiradigan iqtisodiy foydasi va xarajatlar o‘rtasidagi nisbat hisobga olinishi kerak.

Pul mablag‘laridan foydalanish samaradorligi korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi bir qator ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Jumladan, joriy likvidlik, mutlaq likvidlik, pul oqimlari balansi, rentabellik va pul mablag‘larining aylanish tezligi shular jumlasidandir.korxona hisobvaraqlarida katta miqdordagi pul mablag‘larining mavjudligi har doim ham yuqori samaradorlikni anglatmaydi. Agar mablag‘lar uzoq muddat davomida harakatsiz saqlansa, inflyatsiya ta’sirida ularning xarid qobiliyati pasayishi mumkin. Shu sababli korxonalar likvidlik va daromadlilik o‘rtasidagi maqbul muvozanatni ta’minlashi zarur. Korxonalarda pul mablag‘larini samarali boshqarish moliyaviy menejmentning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy menejment korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarini boshqarishga qaratilgan faoliyatdir.Pul mablag‘larini

ISSN: 3060-4737 Volume 3, Issue 11 IF(Impact Factor) 10.98 / 2026

boshqarish jarayoni, avvalo, pul oqimlarini tahlil qilishdan boshlanadi. Pul oqimlari korxonaga ma’lum bir davr davomida kelib tushadigan va undan chiqib ketadigan pul mablag‘lari harakatini ifodalaydi.Pul oqimlari odatda uchta asosiy guruhga ajratiladi:

Operatsion faoliyat bo‘yicha pul oqimlari. Mahsulot sotishdan tushgan tushumlar, xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar, xomashyo xaridi, ish haqi va boshqa joriy xarajatlar bilan bog‘liq mablag‘lar.Investitsion faoliyat bo‘yicha pul oqimlari. Asosiy vositalarni sotib olish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, uzoq muddatli investitsiyalar kiritish va aktivlarni sotish bilan bog‘liq operatsiyalar.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul oqimlari. Kredit olish va qaytarish, aksiyalar chiqarish, dividend to‘lash hamda boshqa moliyalashtirish operatsiyalari.Ushbu uch yo‘nalish bo‘yicha pul oqimlarini alohida tahlil qilish korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini to‘liq baholashga yordam beradi. Pul mablag‘larini boshqarishda quyidagi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq:Pul oqimlari byudjetini shakllantirish,daromad va xarajatlar prognozini ishlab chiqish,debitorlik qarzdorligini nazorat qilish,kreditorlik qarzdorligini maqbul darajada boshqarish,xarajatlarni doimiy tahlil qilib boorish,moliyaviy xavflarni baholash.Mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha ichki nazorat tizimini takomillashtirish.shuningdek, debitorlik qarzdorligini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki mahsulot sotilgan bo‘lsa-da, uning qiymati o‘z vaqtida undirilmasa, korxonaning real pul mablag‘lari kamayadi. Natijada ishlab chiqarish va boshqa majburiy to‘lovlarni amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.Shu sababli korxonalar xaridorlarning to‘lov intizomini baholashi, shartnomalarda to‘lov muddatlarini aniq belgilashi va muddati o‘tgan qarzdorlikni qisqartirish choralarini ko‘rishi zarur. Pul mablag‘laridan samarali foydalanish masalasi faqat korxonalar faoliyati bilan cheklanmaydi. Ushbu masala davlat moliyasi, bank-kredit tizimi, investitsiya siyosati va makroiqtisodiy barqarorlik bilan ham bevosita bog‘liq.Davlat byudjeti mablag‘lari mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Byudjet mablag‘larining ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa muhim tarmoqlarga maqsadli yo‘naltirilishi iqtisodiy o‘sishning muhim omilidir.Agar davlat mablag‘lari iqtisodiy jihatdan samarali loyihalarga yo‘naltirilsa, yangi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etiladi, ish o‘rinlari yaratiladi va aholining daromadlari ortadi.Aksincha, byudjet mablag‘laridan samarasiz foydalanish davlat qarzining ortishi, byudjet taqchilligining kuchayishi va moliyaviy barqarorlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.Kredit mablag‘laridan samarali foydalanish ham iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Bank kreditlari tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy manba hisoblanadi.Biroq kredit resurslari ishlab chiqarish va iqtisodiy

ISSN: 3060-4737 Volume 3, Issue 11 IF(Impact Factor) 10.98 / 2026

samaradorlikni oshiruvchi yo‘nalishlarga sarflanishi kerak. Kredit mablag‘larini maqsadsiz ishlatish qarzdorlik yukining ortishiga va moliyaviy muammolarga sabab bo‘ladi. Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan pul mablag‘larining samarali taqsimlanishi inflyatsiya jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotdagi pul taklifi, foiz stavkalari va kreditlash shartlari tartibga solinadi. Shu bilan birga, inflyatsiyani faqat pul massasi bilan izohlash to‘g‘ri emas. Narxlarning o‘sishiga ishlab chiqarish xarajatlari, import narxlari, talab va taklif muvozanati hamda valyuta kursidagi o‘zgarishlar ham ta’sir ko‘rsatadi.Investitsiya mablag‘larining ishlab chiqarish va infratuzilma sohalariga yo‘naltirilishi iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiradi. Bu esa uzoq muddatda mahsulot va xizmatlar taklifining oshishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishiga xizmat qiladi.Demak, davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:Har bir korxonada qisqa, o‘rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish tizimini rivojlantirish.Pul oqimlari byudjetini oyma-oy va chorakma-chorak shakllantirish.Debitorlik qarzdorligini kamaytirish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish.Xarajatlarni doimiy tahlil qilish va iqtisodiy jihatdan samarasiz yo‘nalishlarni qisqartirish.Bo‘sh pul mablag‘larini xavfsizlik, likvidlik va daromadlilik mezonlari asosida boshqarish.Moliyaviy nazorat va ichki audit tizimini takomillashtirish.Zamonaviy buxgalteriya va moliyaviy boshqaruv dasturlaridan keng foydalanish.Moliyaviy menejment sohasida xodimlarning malakasini oshirish.Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan oldin ularning iqtisodiy samaradorligini baholash.Moliyaviy xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish bo‘yicha tegishli strategiyalar ishlab chiqish.Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, pul mablag‘lari aylanishini tezlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

1-Jadval

Yo‘nalishlar	Mazmuni	Kutiladigan natija
Moliyaviy rejalashtirish	Daromad va xarajatlarni oldindan belgilash	Mablag’lar taqchiligini kamaytirish
Xarajatlarni optimallashtirish	Ortiqcha xarajatni qisqartirish	Sof foydani oshirish
Pul oqimlarini boshqarish	Kirim va chiqimlarni nazoirat qilish	Moliyaviy barqarorlik

ISSN: 3060-4737 Volume 3, Issue 11 IF(Impact Factor) 10.98 / 2026

Debitorlik qarzlarini boshqarish	Qarzdorlikni o’z vaqtida undiridh	Aylanma mablag’larni ko’paytirish
Investitsion faoliyat	Bo’sh mablag’larni foydali loyihalarga yo’naltirish	Qo’shimcha daromad olish
Ichki moliyaviy nazorat	Moliyaviy operatsiyalarni tekshirish	Mablag’lardan maqsadli foydalanish

Jadvalni xulosa qilsak,rejalashtirish,oqimlarni boshqarish va ichki nazorat mexanizmlarining uyg’un ishlashi mablag’lar taqchilligining oldini oladi hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.Resurslar aylanishini tezlashtirish:Debitorlik qarzlarini o’z vaqtida undirish korxonaning aylanma mablag’larini ko’paytirish,to’lov obilyatini mustahkamlaydi.keyingisi foydani maksimallashtirish: yani ortiqcha xarajatlarni optimallashtirish va bo’sh mablag’larni investitsiya loyihalariga jalb qilish orqali korxona sof foydasi hamda qo’shimcha daromad manbalari oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel.

2.O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr.

3.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosatiga oid rasmiy materiallari. – www.cbu.uz.

4.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari. – www.imv.uz.

5.Brigham E. F., Houston J. F. Fundamentals of Financial Management. – Cengage Learning.

6.Ross S. A., Westerfield R. W., Jordan B. D. Fundamentals of Corporate Finance.

7.International Accounting Standard 7 (IAS 7). Statement of Cash Flows.

8.International Financial Reporting Standards (IFRS). Rasmiy materiallar – www.ifrs.org.